	Talabalarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishning innovatsion pedagogik texnologiyalari 1846 Xurramova Sanobar Mahmatmurod qizi
	O'smirlik davrida axloqiy o'zini o'zi anglashni ijtimoiy psixologik xususiyatlari 1851 Galdiyeva Mehribon Durdiyevna
	Bolalar bog'langan nutqni rivojlantirishda badiiy adabiyotlarning muhim o'rni 1855 Abidova N. Z., Karimova Z. A.
	The Emergence of Speech Competence and its Role in 21St Century Competencies 1859 Rajabova Munishxon Rajab qizi
	Innovatsion ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish metodikasini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari (ona tili fani misolida)..... 1863 Norboyeva Farangiz Alisher qizi
	Global raqamli qaramlik (telefon, internet, ijtimoiy tarmoq)ning talabalarning ruhiy holatiga ta'siri 1868 Babayeva Nazira Asatullayevna
	O'smirlar o'rtasida o'zaro hamkorlik shakllanishida shaxslararo munosabatlarning ahamiyati 1872 Majidov Jasur Baxtiyarovich
	Yosh futbolchilarda stress va asabiylikni boshqarish..... 1877 O.T. Baxromov
	Структура и содержание когнитивных компетенций в профессиональной подготовке педагога..... 1880 Каримова Фарида Наильевна
	Bo'lajak mutaxassislarning kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishda milliy qadriyatlardan foydalanish..... 1884 Muqimov Ma'ruf Olimovich
	Biologiya darslarida innovatsion interfaol metodlar: STEM, CLIL, Flipped Classroom va PBL yondashuvlarini joriy etish mexanizmlari 1887 Kozimov Akbarjon A'zamjon o'g'li
	Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish 1892 Ibrohimova Nilufar Qobil qizi
	Творческое наследие Тагай Мурада: его рассказы в оригинале и в переводе 1897 Меликулова Нилуфар Хамдуллаевна
	Gender Equality: an Important Prospect for the Development of a New Uzbekistan..... 1902 Khamidova Sitorakhan Mukhammadjonovna
	Gandbolchilarning jismoniy sifatlarini harakatli o'yinlar orqali rivojlantirish..... 1906 Lutpullayev Bunyod Ismatilayevich
	Abu Mansur al-Moturidiyning bilimning "Muvofiqlik nazariyasi" 1909 Qurbonova Zebiniso Mamarajab qizi
	Professor-o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarning rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvning afzalliklari..... 1914 X. N. Agaliyeva
	Maktabgacha ta'limda bolalarning hissiy-ma'naviy rivojlanishida didaktik o'yinlarning ahamiyati 1920 Urinbayeva Barchinoy Zafarjanovna
	Yoshlarni milliy musiqa san'ati va an'anaviy xonandalikka bo'lgan munosabatini tarbiyalash 1924 Qurbonova Shoxisanam Axmadjonovna
	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tabiiy fanlar mavzularini o'rganishdagi klaster yondashuvlari. 1930 Umarova Nafisa Ahmatillovna
	11–15 yoshli suzuvchilarning mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirish xususiyatlari 1934 Hasanov Anvar Toxirovich, Asqarova Zaynura
	Yosh voleybolchilarning jismoniy rivojlanishini o'rganish 1937 Sultonov Baxtiyor Abdumurodovich, Hasanov Anvar Toxirovich



Школьные трудности в обучении и педагогическое диагностирование	1940
<i>Урумбаева Айгуль Нагметовна</i>	
Erkin kurashchilarda maxsus jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishda funksional kuch mashqlarining samaradorligi.....	1943
<i>Meliqo'ziyev Azizjon Adxamjon o'g'li</i>	
Употребление падежных окончаний на уроках русского языка	1947
<i>Адилова Солияхон</i>	
STEAM va raqamli ta'lim texnologiyalari asosida alfa avlod o'quvchilarida kreativ tafakkurni shakllantirishning pedagogik asoslari.....	1951
<i>Boltayeva Go'zal Komilovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida olib boriladigan mashg'ulotlarda zamonaviy ta'lim texnologiyalariga qo'yiladigan didaktik talablar	1954
<i>Mansurova Lobar Luqmon qizi</i>	
Translation Techniques as an Integral Part of Foreign Language Teaching and Learning: Benefits and Potential Issues	1958
<i>Yusupova Nargiza Abdulxafizovna</i>	
Использование интерактивных методов обучения русскому языку в медицинском вузе.....	1963
<i>Бекмуратова Умида Аманбаевна</i>	
Nogironligi bo'lgan bolalarda adaptiv jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining sog'liqni saqlashdagi o'rni.....	1967
<i>Namozova Nargiza Husniddin qizi</i>	
The Importance of the Theoretical Basis in Educating Preschool Children in the Spirit of National Education Within the Family.....	1971
<i>Rakhmonova Diyora Utkir's daughter</i>	
Kurash mashg'ulotlarida sportchilarning funksional tayyorgarligini oshirishda individual yondashuvning ilmiy asoslari.....	1976
<i>Nurullayev Abduxoliq Qaxxorovich</i>	
Voleybol mashg'ulotlarida funksional tayyorgarlikni oshirishda individual yondashuvning ilmiy asoslari ...	1980
<i>Davulov Ozodbek Qalandarovich</i>	
18–21 yoshdagi talaba futbolchilarni kompleks tayyorlashning nazariy va uslubiy jihatlari.....	1984
<i>Djemilov Temur Rasimovich</i>	
Oilaviy nizolarning bolalar psixikasiga ta'siri.....	1989
<i>Tulyaganova Dilnoza Ravshanbekovna</i>	
Boshlang'ich maktab yoshidagi (6–8 yosh) chap qo'li dominant bo'lgan bolalarning psixologik rivojlanishi va xususiyatlari	1993
<i>Usmanova Sevara Akmalovna</i>	
Matematika fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalar orqali darsni qiziqarli va samarali qilish usullari ...	1996
<i>Abdullayev G'ayratjon Mutalipovich</i>	
Entropiya o'lchovlarining nazariy asoslari: Shannon, Reyni va Tsallis entropiyasi taqqoslamasi.....	2001
<i>Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Abdurashidov Saydullo Xayrullo o'g'li</i>	
Sun'iy intellekt vositalari asosida kiberijtimoiylashuv samaradorligini oshirishning pedagogik sharoitlari va monitoring mexanizmlari.....	2007
<i>Istamova Dilnoza Norboyevna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida kompetensiyaviy yondashuvga tayanib ta'lim mazmunini boshqarish	2012
<i>Turaxujayeva Madina Norpulatovna</i>	
Para armrestlingchi talabalarni musobaqa oldi texnik tayyorgarligini takomillashtirishda kuch sifatining o'rni.....	2015
<i>Karimov Faxriddin Xurramovich</i>	
Yengil atletika sportchilarida yadro itqitish harakati biomexanik ko'rsatkichlarining texnik samaradorlikka ta'siri	2019
<i>Djabbarov Axror Islomovich</i>	
Tinchlik madaniyati konsepsiyasining evolyusiyasi: klassik va zamonaviy falsafa	2023
<i>Abdumalikov Ilimjon Abduxamjonovich</i>	
Talabalarning muammoga asoslangan topshiriqlar orqali kognitiv mustaqilligini rivojlantirish: mohiyat va mazmun	2028
<i>Abduvaliyev Nurillo Abdujalilovich</i>	
Oliy ta'lim muassasasi pedagoglari innovatsion faoliyatining ijtimoiy psixologik xususiyatlari	2032
<i>Almardanova Salomat Bobonazarovna</i>	

Kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish zarurati	2035
<i>Ashirov Abdurashid Ravshanovich</i>	
Pedagogik ta'lim klasteri tizimi asosida maktab laboratoriya innovatsion loyihasi amalg oshirishning o'ziga xosligi	2040
<i>Azimova Odinaxon Abduqodir qizi</i>	
Talabalarda algoritmik kompetentlikni rivojlantirishning sun'iy intellekt va Big Data Analytics asosida o'quv faoliyatini real vaqt rejimida kuzatuvchi va boshqaruvchi konseptual modelni takomillashtirish.....	2043
<i>Kayumova Nazokat Rashitovna</i>	
Uzluksiz ta'lim tizimida texnologiya fanini o'qitish samaradorligini oshirishning metodik asoslari	2049
<i>Kurbanov Baxrom</i>	
Ingliz tilida o'qitish vositasi sifatida monologlardan foydalanishning muvaffaqiyatli strategiyalari	2053
<i>Madaminova Nilufar Madrasulovna</i>	
Raqamli texnologiyalar davrida o'quvchilarning psixologik xavfsizligini ta'minlash muammolari	2056
<i>Mahmudov Dilmurod Rahmatjonovich</i>	
Gamifikatsiya va STEAM texnologiyalarini joriy etish orqali boshlang'ich ta'limda inklyuziya va teng imkoniyatlarni ta'minlash	2059
<i>Mamadjanova Diloromxon Baxtiyor qizi</i>	
Talabalarning tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda raqamli kompetensiyalarning roli.....	2064
<i>Mamasulova Zulayho Abdullayevna, Toshmatov Sardorbek Shahobiddinovich</i>	
Maktab yoshidagi o'quvchilarda suzish mashg'ulotlari orqali jismoniy rivojlanish va funktional tayyorgarlik ko'rsatkichlarini oshirish metodikasi.....	2067
<i>Mengliqulov Xayrullo Aliqulovich</i>	
O'quv jarayonida "Data Science" elementlarini integratsiyalashning didaktik imkoniyatlari	2072
<i>Mo'minova Dilnavoz Komilovna</i>	
Muloqot kompetensiyasining pedagogik-psixologik mazmuni va rivojlanish omillari.....	2077
<i>Narbayeva Malohat Xudayberdiyevna</i>	
O'g'il va qiz bolalarda gender tasavvurlarning shakllanishida ota-onaning liderlik maqomining roli.....	2080
<i>Ogina Otajonova</i>	
Yarimo'tkazgichlar fizikasi fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy asoslari	2084
<i>Oromiddinov Sardorbek Botirovich</i>	
Yangi O'zbekistonda ta'limni rivojlantirishda media vositalardan foydalanish metodlari	2089
<i>Qobilov Vohidjon Asliddin o'g'li</i>	
Inklyuziv ta'limda pedagoglarni tayyorlashning zamonaviy tendensiyalari va innovatsion yondashuvlar ...	2092
<i>Qodirova Feruza Usmanovna</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida o'yinli texnologiyalardan unumli foydalanishning roli.....	2095
<i>Sobirova Bonu Matkarimovna</i>	
Kichik yoshli bolalarning olamni idrok etishlarida oila tarbiyasining ahamiyati	2099
<i>Sobirova Fotimaxon Baxodir qizi, G'aniyeva Shodiya Azizovna</i>	
Talabalarning tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda raqamli kompetensiyalarning roli.....	2102
<i>Mamasulova Zulayho Abdullayevna, Toshmatov Sardorbek Shahobiddinovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning didaktik tizimi	2105
<i>Ulug'berdiyeva Dilbar Qarshibekovna</i>	
Kurashchi qizlarning texnik harakatlarining kinematik va kinetik modellashtirish	2109
<i>Xomudjonova Feruza Komiljon qizi</i>	
Lingvokulturologiya va kommunikativ yondashuv integratsiyasi asosida talabalarda ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirish.....	2114
<i>Y. T. Umarova</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatda kasbiy barqarorligini ta'minlovchi psixologik omillar	2118
<i>Yakubova Manzura Abduraxmonovna</i>	
Integratsiyalashgan darslar orqali talabalarning kreativ salohiyatini rivojlantirish	2121
<i>Yaxyayeva Umida Sharifovna</i>	
Tibbiyot oliy ta'limida "O'zbekiston tarixi" fanining amaliy komponentini kuchaytirish: klinik-ijtimoiy kontekst orqali o'qitish modeli	2125
<i>Yulchiyeva Gulnozaxon Shuxratbek qizi</i>	
Radiatsion fonning inson hayot faoliyatiga ta'siri mavzusini o'rganishning pedagogik ahamiyati	2130
<i>Sodiqov Murod Naimovich</i>	



Talabalarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda zamonaviy jismoniy tarbiya metodlarining samaradorligi	2134
Tashpulatov Farxad Alisherovich	
“Arba’in” asarida qit’alarning vazniy xususiyatlari.....	2140
Eshniyazova Maysara Beknazarovna	
Guruhiy loyihalar orqali bolalarda hamkorlik va muloqot ko’nikmalarini tarbiyalash.....	2145
Negmatova Sanobar Qarshiboyevna	
Sport takomillashuv gurugidagi futbolchilarni o’yinga yo’naltirilgan mashg’ulotlar orqali musobaqaga tayyorgarlikni takomillashtirish	2149
Mamatraimov Anvar Chorshanbiyevich	
Oliy ta’lim raqobatbardoshligining ta’lim sifatini oshirishdagi roli	2155
Nishonov Dilshod Shamsidinovich	
Sharq donoligi va zamonaviy ta’lim uyg’unligi	2162
Djurakulova Adolat Xolmuratovna	
The Role of Artificial Intelligence in Teaching English as a Foreign Language	2165
Babayeva Komila Rishatovna	
Zaif eshituvchi bolalarga tasviriy san’atni o’rgatishning metodik asoslari (miniatyura misolida).....	2169
Buharbayev Muxtar Yusupovich	
Bo’lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining axloqiy va estetik madaniyatini takomillashtirish: maxsus yondashuvlar	2172
Do’schanova Nafosat Norimonovna	
Boshlang’ich sinf o’quvchilarida tanqidiy fikirlashni rivojlantirish texnologiyalari	2176
Fayzullayeva Feruza Raxmatovna	
Bo’lajak o’qituvchilarda kommunikativ madaniyatni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	2179
Izbosarova Zuxro Anatoliy qizi	
Dialekt va adabiy til: o’zaro munosabat.....	2183
Jumanazarova Guljahon	
Maktabgacha ta’lim yo’nalishi talabalariga kommunikativ kompetensiyalarni o’rgatishda interaktiv ta’lim texnologiyalar.....	2187
Kimsanboyeva Ruksoraxon Ziyodbek qizi	
Pedagogik nizolarni hal etishda bo’lajak o’qituvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari	2190
Norjon Jamilova Abduxoliq qizi	
Abu Nasr Farobiy asarlari asosida talabalarni boshqaruv madaniyatini rivojlantirish.....	2194
Shamsiyeva M. R.	
O’smirlarda affiliatsiya motivini shakllantirishning pedagogik-psixologik determinantlari	2196
Tojiboyeva Gulxumor Raxmanjanovna, Saidova Maftuna Xakim qizi	
Преподаватель - русист в современной национальной школе: личный опыт и методические находки	2200
Хамидова Гулноза Турсунбаевна (Турсунбой кизи)	



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TIZIMI

Ulug'berdiyeva Dilbar Qarshibekovna
Urganch davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning didaktik tizimi, uning asosiy komponentlari, tamoyillari hamda samarali metodik yondashuvlari tahlil etiladi. Shuningdek, nutqni rivojlantirishda integrativ yondashuvning o'rni, didaktik vositalar va faoliyat turlari orqali nutqiy faoliyatni shakllantirish usullari yoritiladi.

Kalit so'zlar: nutqiy rivojlanish, didaktik tizim, maktabgacha ta'lim, metodika, kommunikativ kompetensiya.

Abstract: This article analyzes the didactic system for developing speech in preschool children, its main components, principles, and effective methodological approaches. In addition, the role of an integrative approach in speech development is examined, as well as methods for forming speech activity through didactic tools and various types of activities.

Key words: speech development, didactic system, preschool education, methodology, communicative competence.

Аннотация: В данной статье анализируется дидактическая система развития речи детей дошкольного возраста, ее основные компоненты, принципы и эффективные методические подходы. Также раскрывается роль интегративного подхода в развитии речи, а также способы формирования речевой деятельности посредством дидактических средств и различных видов деятельности.

Ключевые слова: речевое развитие, дидактическая система, дошкольное образование, методика, коммуникативная компетенция.

KIRISH

Nutq insonni inson qiluvchi eng muhim psixik funksiyalardan biridir. U nafaqat fikr almashish vositasi, balki tafakkurning shakllanishidagi markaziy omil, shaxs rivojining poydevori hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha yosh davri bolaning nutqiy, intellektual va ijtimoiy jihatdan shakllanishida hal qiluvchi bosqich bo'lib, bu davrda nutqning rivojlanishi bolaning umumiy psixik taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqdir. Nutqning shakllanishi psixolingvistik, kognitiv, ijtimoiy va emotsional omillar bilan murakkab o'zaro aloqadorlikda kechadi. L. S. Vygotskiy ta'kidlaganidek, bola nutq orqali atrofdagi voqelikni idrok etadi, unga nisbatan munosabat bildiradi va o'zining ichki dunyosini ifodalash imkoniga ega bo'ladi. Shunday ekan, nutq – bu nafaqat kommunikativ vosita, balki bolaning ong faoliyatini rivojlantiruvchi muhim omil hamdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun nutqiy faoliyatning rivoji ularning kelgusida ta'lim olishga tayyorligi, o'quv faoliyatining muvaffaqiyatli kechishi hamda ijtimoiy moslashuv darajasini belgilaydi. Zero, nutq orqali bola o'z fikrini bayon etadi, savollarga javob beradi, atrofdagilar bilan munosabatga kirishadi, o'zini anglaydi va boshqalarning hissiy holatini tushunadi. Bu esa nutqni rivojlantirishni maktabgacha ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biriga aylantiradi. Bugungi kunda ta'lim jarayoniga yondashuvlar o'zgarib borayotgan bir paytda, bolalarning nutqiy rivojlanishiga oid metodik yondashuvlar ham zamonaviy psixopedagogik tamoyillarga asoslanishi zarur. An'anaviy yodlashga asoslangan yondashuvlar o'rniga faoliyatga yo'naltirilgan, bolani subyekt sifatida tan oluvchi va uning individual rivojlanish trayektoriyasini hisobga oluvchi metodlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, integratsiyalashgan yondashuv – ya'ni nutqiy rivojlanishni boshqa ta'lim sohaları bilan uyg'un holda tashkil etish – ta'lim samaradorligini oshiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishga oid didaktik tizimni shakllantirishda lingvistik, psixologik va pedagogik komponentlar uyg'unlashgan holda qo'llanilishi lozim. Bunda bola nutqining fonetik, leksik-semantik, grammatik va kommunikativ jihatlarini rivojlantirishga qaratilgan bosqichma-bosqich hamda tizimli yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy rivojlanishi ta'lim-tarbiya tizimining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u bolaning aqliy, ijtimoiy va emotsional shakllanishida markaziy rol o'ynaydi. Ushbu jarayonni chuqur o'rganish, metodik jihatdan asoslash va amaliyotga tatbiq etish maqsadida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar pedagogika, psixolingvistika, ontolingvistika va metodika fanlarining kesishgan nuqtasida shakllangan. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, nutqiy rivojlanish masalasi keng ko'lamda – nazariy, amaliy va metodik jihatdan chuqur o'rganilgan hamda o'zaro boyitilgan. Avvalo, S. N. Seytlinning “Язык и ребёнок” asari bolalar nutqining ontogenezini o'rganishga bag'ishlangan fundamental tadqiqot hisoblanadi ^[4]. Muallif bolalar nutqini mustaqil til tizimi sifatida tahlil qilgan holda, uning shakllanishida grammatika, semantika va sintaksisning bosqichma-bosqich egallanishini psixolingvistik yondashuv asosida yoritadi.

Ayniqsa, bola tomonidan yaratiladigan “innovatsion gaplar” fenomeni nutqiy rivojlanishning ijodiy va individual yo'nalishini yaqqol namoyon etadi. Ushbu asar nazariy asoslar bilan bir qatorda, bolalarning tilga oid qobiliyatlarini aniqlash va baholash metodikasini ham belgilaydi. Maktabgacha ta'lim tizimida keng qo'llanilayotgan “Теория и методика развития речи детей дошкольного возраста” nomli darslikda bolalar nutqini rivojlantirishning izchil pedagogik tizimi ishlab chiqilgan. Darslik mualliflari (Batura, Zdorikova va boshqalar) nutqiy rivojlanish komponentlarini – fonetik, leksik-semantik, grammatik va kommunikativ jihatlarni – bosqichma-bosqich egallanishi nuqtai nazaridan tahlil qiladi ^[2]. Unda bolalarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishda suhbat, hikoya qilish, vizual materiallardan foydalanish, drammatizatsiya kabi metodik yondashuvlarning afzalliklari ilmiy asoslangan. Ushbu asar nutqni rivojlantirish bo'yicha o'qituvchilar va tarbiyachilar uchun amaliy qo'llanma vazifasini bajaradi.

O'zbek olimasi D. R. Babaevaning “Nutq o'stirish metodikasi” asari maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishga oid metodik yondashuvlarni milliy ijtimoiy-lingvistik kontekstda tahlil qiladi. Asarda bolalarning o'zbek tilidagi talaffuz, grammatik tuzilmalarni egallash hamda so'z boyligini kengaytirishga qaratilgan an'anaviy va zamonaviy metodlar bayon etilgan. Shuningdek, bolani atrof-muhit bilan tanishtirish orqali nutqni faollashtirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar tizimi ushbu asarning amaliy ahamiyatini yanada oshiradi ^[1]. Nutqiy rivojlanishda tasviriy faoliyatning rolini chuqur o'rgangan A. A. Zapunidining tadqiqotlari alohida e'tiborga loyiq. Uning izlanishlari shuni ko'rsatadiki, rasm chizish, bo'yash hamda syujetli kompozitsiyalar yaratish orqali bola o'z nutqini mantiqiy izchillik asosida tashkil etishga o'rganadi. Bola o'zi chizgan rasmini og'zaki izohlab berishga intilar ekan, unda so'z boyligi kengayadi, grammatik birliklar mustahkamlanadi va bog'liq nutq shakllanadi ^[3]. Lingvistik va psixopedagogik asoslarning uyg'unligi, metodik yondashuvlarning faoliyatga yo'naltirilganligi hamda tasviriy va ijodiy faoliyatlarning nutqiy rivojlanishdagi integratsiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa maktabgacha ta'lim muassasalarida nutqiy rivojlanishga oid faoliyatlarni samarali tashkil etish uchun mustahkam nazariy va amaliy poydevor yaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Lingvistik va psixopedagogik asoslarning uyg'unligi, metodik yondashuvlarning faoliyatga yo'naltirilganligi hamda tasviriy va ijodiy faoliyatlarning nutqiy rivojlanishdagi integratsiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa maktabgacha ta'lim muassasalarida nutqiy rivojlanishga oid faoliyatlarni samarali tashkil etish uchun mustahkam nazariy va amaliy poydevor yaratadi.

Nutqiy rivojlanish maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasining markaziy yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Ushbu rivojlanishni samarali tashkil etish uchun uni maqsadga yo'naltirilgan, tizimli va kompleks yondashuv asosida amalga oshirish zarur. Shu nuqtayi nazardan, didaktik tizim – bu nutqiy rivojlanishni pedagogik jihatdan samarali boshqarish imkonini beruvchi nazariy va amaliy asoslar majmuasidir. Didaktik tizim deganda pedagogik jarayonning asosiy komponentlari – maqsad, mazmun, metodlar, vositalar, shakllar va kutilayotgan natijalar – o'zaro bog'liq, yagona struktura sifatida tushuniladi. Mazkur tizim maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlari, individual rivojlanish darajasi, nutqiy ehtiyojlari va qobiliyatlarini inobatga olgan holda shakllantiriladi.

Nutqni rivojlantirishga qaratilgan didaktik tizim o'zining metodologik asosi sifatida psixolingvistik, kommunikativ, sotsiokognitiv va faoliyatga asoslangan yondashuvlarni uyg'unlashtiradi. Ushbu yondashuvlar asosida bola nafaqat nutqiy birliklarni egallaydi, balki o'z fikrini mustaqil bayon qilish, savol berish, hikoya qilish hamda suhbatda faol ishtirok etish kabi real kommunikativ vazifalarni bajarish orqali samarali muloqotga kirishishni o'rganadi. Didaktik tizimning samarali faoliyat ko'rsatishi uning tarkibiy qismlarining aniq belgilanishi va o'zaro uyg'un ishlashiga bevosita bog'liq.

Nutqiy rivojlanish uchun mo'ljallangan didaktik tizimning muhim komponentlari quyidagilardan iborat:

- nutqiy rivojlanishning bosh maqsadi bolaning to'g'ri, aniq va izchil nutqiy faoliyatini shakllantirish orqali uning fikrlash jarayoni, ijtimoiylashuvi va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishdan iborat bo'lib,



bunda leksik boylikni oshirish, grammatik tuzilmani o'zlashtirish hamda sintaktik birliklar bilan mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi;

- didaktik tizimning mazmuni bolaning nutqiy kompetensiyasini bosqichma-bosqich rivojlantirishga yo'naltiriladi va fonetik komponent (tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, fonematik eshituvni rivojlantirish), leksik-semantik komponent (so'z boyligini kengaytirish, so'zlarning ma'nolarini anglash), grammatik komponent (so'z turkumlari, so'z birikmalari va gap tuzilmalari bilan ishlash) hamda kommunikativ komponent (og'zaki muloqotga kirishish, nutq madaniyatini shakllantirish)ni qamrab oladi;
- nutqni rivojlantirishda qo'llaniladigan metodlar bolaning yosh va individual xususiyatlariga mos ravishda tanlanib, vizual metodlar (rasm, piktogramma va predmetli ko'rsatmalar), og'zaki metodlar (suhbat, savol-javob, hikoya qilish), faoliyatga asoslangan metodlar (rolli o'yinlar, teatrlashtirish, rasm asosida hikoya tuzish) hamda o'yin metodlari (fonetik, leksik va grammatik o'yinlar) orqali nutqiy ko'nikmalarni mustahkamlashga xizmat qiladi;
- didaktik vositalar esa nutqiy faoliyatni samarali tashkil etishda muhim omil bo'lib, bosma materiallar (darsliklar, metodik qo'llanmalar, ertak va hikoyalar to'plami), vizual materiallar (rasmlar, kartochkalar, grafik sxemalar), texnik vositalar (audio va video materiallar, interaktiv doskalar, multimedia ilovalari) hamda ijodiy materiallar (qo'g'irchoqlar, teatr elementlari, rasm chizish anjomlari)ni o'z ichiga oladi.

Shuningdek, kommunikativ vaziyatlarni yaratishga xizmat qiluvchi ijodiy-syujetli o'yinlar hamda tasviriy faoliyat turlari – chizish, qurish va haykalchalar yasash – bolalarning nutqiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda faoliyatga asoslangan yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. L. S. Vygotskiy tomonidan ishlab chiqilgan madaniy-tarixiy nazariyaga ko'ra, bola faoliyat jarayonida rivojlanadi, faoliyat esa uning ruhiy taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Aynan faoliyat davomida bola yangi bilim va ko'nikmalarni egallaydi, nutqiy tajriba orttiradi hamda til vositalarini amaliyotda qo'llashni o'rganadi. Turli tadqiqotlar natijalariga ko'ra, rasm chizish, hikoya tuzish, teatrlashtirilgan o'yinlar, dialogik suhbatlar, ertaklarni tahlil qilish va matnni tuzatish kabi faoliyatlar bolaning nutqiy salohiyatini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega. Masalan, tasviriy (ijodiy) faoliyat – ya'ni chizish, bo'yash va kompozitsiya yaratish – bola tafakkurining obrazli, emotsional hamda verbal ifodalanishini ta'minlaydi. Bola o'z ijodiy niyatini so'z orqali bayon etishga harakat qilganida, u mantiqiy izchillikni, grammatik va leksik vositalarni o'zaro muvofiqlashtirishga intiladi. Shu orqali uning bog'liq nutqi, izchil bayon qilish qobiliyati va kommunikativ malakalari shakllanadi.

Shuningdek, teatr o'yinlari bolalarda rollarni ifodalash, harakat va so'zlar orqali o'z fikrini bayon etish, boshqa ishtirokchilar bilan og'zaki muloqotga kirishish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Ushbu o'yinlar bolalarda dramatik ifoda vositalarini, dialog qurish malakalarini hamda ifodali nutq usullarini rivojlantiradi. Dialogik faoliyatlar – suhbatlar va savol-javob mashqlari – esa bolalarning muloqotga kirishish, tinglash, tushunish va fikr bildirish malakalarini kuchaytiradi. Ayniqsa, hikoya qilish va matnni tuzatish mashqlari bolaning nutqiy ijodkorligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bola hikoya tuzish jarayonida syujet yaratish, sabab-oqibat munosabatlarini ifodalash, bog'lovchi so'zlardan foydalanish, zamon, joy va voqealar ketma-ketligini aks ettirish kabi murakkab til birliklarini egallaydi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolaning nutqiy faoliyati eng samarali tarzda faol va ijodiy jarayonlar davomida, ayniqsa tasviriy faoliyat bilan integratsiyalashgan holda rivojlanadi. Tasviriy faoliyat bolaning ijodiy fikrlashi, mantiqiy tafakkuri va emotsional ifoda vositasi bo'libgina qolmay, balki uning nutqiy kompetensiyasini shakllantirishda ham muhim vosita hisoblanadi. Chizilgan rasm – bolaning ichki dunyosi, tasavvuri va tushunchalarining ifodasidir. Bola ushbu tasviriy ifodani so'z bilan tushuntirishga harakat qilganida, uning nutqiy resurslari faollashadi, leksik boyligi kengayadi va bog'liq nutqni qurish ko'nikmalari rivojlanadi.

Nutqni rivojlantirishga qaratilgan tasviriy faoliyat metodikasi quyidagi asosiy maqsadlarga yo'naltiriladi: bolaning og'zaki bog'liq nutqini shakllantirish, so'z boyligini kengaytirish, grammatik tuzilmalardan to'g'ri foydalanishga o'rgatish hamda ijodiy fikrni og'zaki ifodalash ko'nikmalarini rivojlantirish. Ushbu jarayon bolaning shaxsiy tajribasiga asoslangan savol-javoblar, rasm asosida hikoya tuzish, dramatisatsiya va suhbatlar orqali amalga oshiriladi.

Metodika uch asosiy bosqichda tashkil etiladi.

Dastlabki tayyorgarlik bosqichida bolada rasm chizishga qiziqish uyg'otiladi va mavzu doirasida suhbat orqali nutqiy muhit yaratiladi. Bu bosqichda "Nima chizmoqchisan?", "Rasmda kimlar bo'ladi?" kabi savollar orqali bolaning fikrlashi va og'zaki faolligi rag'batlantiriladi.

Ikkinchi bosqich – rasm chizish jarayonida bolani soʻz bilan ifodalashga undash bosqichi boʻlib, bunda bola chizayotgan obrazlar haqida “Bu nima?”, “Bu nima qilmoqda?”, “Nima boʻlyapti?” kabi savollar berish orqali uning til vositalaridan foydalanish ehtiyoji kuchaytiriladi. Agar bola izchil bayon qila olmasa, oʻqituvchi yordamchi savollar orqali fikrni yoʻnaltiradi.

Uchinchi bosqichda esa chizilgan rasm asosida bogʻliq hikoya tuzish topshiriqlari beriladi. Bu jarayonda “Avval nima boʻldi?”, “Keyin nima sodir boʻldi?”, “Ular qayerga ketishdi?” kabi mantiqiy bogʻlovchi savollar yordamida bolaning syujetli nutqi rivojlantiriladi. Shuningdek, bolaning oʻz rasmiga dramatik ifoda berishi, yaʼni rasm asosidagi voqeani rolli oʻyin shaklida namoyon etishi ham tavsiya qilinadi.

Tasviriy faoliyat asosida nutqni rivojlantirish jarayoni quyidagi tamoyillarga tayanadi:

1. Bosqichlilik – nutqiy koʻnikmalarni asta-sekinlik bilan shakllantirish;
2. Faollik va ongli ishtirok – bolaning shaxsiy tajribasiga tayanish orqali uni soʻzlashuvga jalb etish;
3. Individuallashtirish – har bir bolaning nutqiy rivojlanish surʼati va imkoniyatlarini hisobga olish;
4. Integratsiya – tasviriy faoliyatni nutq, atrof-muhitni oʻrganish hamda estetik tarbiya bilan bogʻlash.

Ushbu metodik yondashuvda foydalaniladigan vositalar qatoriga rasmi kartochkalar, bolalar kitoblaridan olingan illustratsiyalar, guash boʻyoqlar hamda tabiatdan toʻplangan predmetlar (barg, novda, gʻoʻza) kiradi. Zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda interaktiv slaydlar va audiohikoyalar bilan birgalikda ishlash ham tavsiya etiladi. Metodikaning samaradorligini aniqlash jarayonida bolaning ogʻzaki nutqi yozib olinadi, uning leksik boyligi, gap tuzilmasi va mantiqiy izchilligi tahlil qilinadi. Davriy diagnostika orqali bolaning rivojlanish dinamikasi baholanadi. Bunday faoliyatlar natijasida bolalarda muloqotga kirishish, mustaqil fikr bildirish, voqelikni ogʻzaki ifodalash hamda ijodiy tafakkur kabi nutqiy kompetensiyalar rivojlanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, tasviriy faoliyat orqali nutqni rivojlantirish nafaqat bolalarning tili va fikrlashini, balki estetik didini, ijtimoiy faolligini hamda oʻz fikrini erkin va ongli ifodalash qobiliyatini shakllantiradi. Shu bois ushbu metodika maktabgacha taʼlim jarayonida keng qoʻllanishi, uni amaliyotga tatbiq etishda tizimli yondashuv zarur hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Бабаева Д.Р. Нутқ устириш методикаси. – Т.: Fan va texnologiya, 2009.
2. Батура И.Н., Здорикова Н.Г. Теория и методика развития речи детей дошкольного возраста. – Могилев, 2015.
3. Запуниди А.А. Роль изобразительной деятельности в развитии функций речи у детей дошкольного возраста. – Москва, 2013.
4. Цейтлин С.Н. Язык и ребенок. Лингвистика детской речи. – М.: Владос, 2000.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.